

Maktabga qabul qilish tartibi

Maktab maqsadi

Invento Ozbek Xalqaro maktabida biz har bir bolaga o'ziga xos xulq-atvorini va o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirish uchun intilib qolamiz. Invento ta'limi o`quvchilarning yaqin muhitini chuqurroq va mazmunli tushunish orqali sog'lom munosabatlarni qurish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biz izlanuvchan o`quvchilarga puxta ishlab chiqilgan ko'p tilli ,talabalar - diqqat markazi bo`lgan dastur orqali xalqaro ongni rivojlantirish uchun uzluksiz ta`lim olish bilan bir qatorda mustahkam ilmiy asoslar yaratishda yordam beramiz.

1. Asos

Invento O'zbek xalqaro maktabi irqi, diniy e'tiqodi , jinsi, millati, daromad manbai va oilaviy ahvoliga qarab kamshitmaslik tamoyillariga amal qiladi. Biz barcha o`quvchilarimizning ta'lim olishda eng yaxshi natijalariga erishishini ta'minlash uchun faqat o'z manbaalarimiz va imkoniyatlarimiz asosida maktabimizdan o`rin berish uchun mas'uliyatni o'z zimmamizga olamiz.

Maxsus ehtiyojlar talab qilinadigan o`quvchilar haqida:

Hozirda bizda og'ir ruhiy kasalliklarga chalingan o`quvchilarga zarur yordam ko'rsatadigan mutaxassislar yo'q; jismoniy nuqsonlari bo'lgan o`quvchilarning o'qishini qo'llab-quvvatlash uchun ham alohida mablag' ko`zda tutilmagan. Maktabga qabul qilishning zaruriy sharti - bu o'quv dasturiga sezilarli o'zgarishlar kiritmasdan, o`quvchida standart sharoitlarda ta'lim olish imkoniyati mavjudligidir.

O`quvchilarning ingliz tilini bilish darajasi haqida:

Invento O'zbek xalqaro maktabi xalqaro ta'limni ingliz tilida olib boruvchi maktabdir. Maktabga qabul qilishda qo'llab-quvvatlash uchun maktabdagi mayjud manbaalardan foydalanishni hisobga olgan holda ,o'quv dasturini o'z vaqtida eng samarali o'zlashtira oladigan o`quvchilarga ustivorlik beriladi.

2.1. Maktabga qabul qilish jarayoni

Maktabga qabul qilish tartibi quyidagicha:

- 1.** Ota-onalar maktab bilan telefon orqali bog'lanib, maktab faoliyati bilan tanishish uchun tashrif buyurish sanasi va vaqtini belgilashadi.
- 2.** Akademik direktor/koordinator bilan suhbat tashkil etiladi.
- 3.** O`quvchini maktabga qabul qilish masalasi IUI Snig har bir oquvchi maqbulligi uchun mutaxassislar tomonidan yakka tartibda muhokama qilinadi.
- 4.** Maktab bola uchun sinov kunini taqdim etadi - Toshkent City kampusida kunduzgi soat 12:00 gacha , Ashxobod kampusida soat 15:30 gacha.
- 5.** O`quvchini maktabga qabul qilish tasdiqlangandan so'ng, ota-onalarga tasdiqlash xati yuboriladi va hujjatlar to'plamining ro'yxati yuboriladi, jumladan: qabul qilish to'g'risida ariza, to'lovga oid hujjatlar va maktab uchun zarur bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlar.
- 6.** Maktab o`quvchi uchun o'qishni boshlash sanasini tasdiqlaydi.

Eslatma: Agar to'ldirilgan ariza yoki taqdim etilgan hujjatning biror bir qismi noto`g`ri to'ldirilgan, yolg'on ma'lumotga ega yoki to'ldirilmagan bo'lsa, maktab qabul qilish to'g'risidagi taklifni qaytarib olish yoki o`quvchini maktabdan ketishi to'g'risida so'rash huquqini o'zida qoldiradi.

Qabul qilishning barcha tartib-taomillari yakunlanganligi sharti bilan o`qishga qabul qilingan o`quvchi kamida ikki kundan so'ng mashg'ulotlarga kirishadi.

2.2. Maktabga qabul qilish va yosh guruhini aniqlash

Birinchi sinfdan (1-sinf) boshlab, yangi o`quvchilar oldingi ta`lim muassasasidan o`zlashtirish va baholar tabeli (tabelni) topshirishlari va qabul qilish uchun ariza shaklini to'ldirishlari kerak. Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, ushbu shartlarga rioya qilish o`quvchining maktabga qabul qilinishini kafolatlamaydi. Yangi o`quvchilar dastur koordinatori yoki zarur holatlarda boshqa tayinlangan mutaxassis, masalan, psixolog bilan suhbatdan o'tishi kerak. Tashkent City kampusidagi guruhlar - 20 nafargacha bog'cha tarbiyalanuvchilari , Ashxobod kampusidagi sinflarda esa, o`quvchilar soni 17 nafardan oshmasligi belgilangan.

Quyidagi jadvalda Invento O'zbek xalqaro maktabi tomonidan 2022/23 o'quv yili uchun o'quvchilarning yosh guruhini aniqlashda qo'llanilgan mezonlar ko'rsatilgan:

Tug'ilgan yili	Yoshi	Invento dagi IB guruhi	O'zbekiston davlat dasturi bo'yicha yosh toifasi	Amerika ta'lim tizimi (31 - avgustgacha to'liq yosha to'lguncha)	Britaniya ta'lim tizimi	Britaniya ta'lim tizimi boyicha yosh ko'rastkichlari
2020	2-3	Toddlers	KG1	-	-	-
2019	3-4	KG1	KG2	-	-	-
2018	4-5	KG2	KG3	-	-	-
2017	5-6	Pre-school	KG4	-	Год 1	5-6
2016	6-7	1-sinf	KG5	G1	Год 2	6-7
2015	7-8	2-sinf	1й класс	G2	Год 3	7-8
2014	8-9	3-sinf	2й класс	G3	Год 4	8-9
2013	9-10	4-sinf	3й класс	G4	Год 5	9-10
2012	10-11	5-sinf	4й класс	G5	Год 6	10-11
2011	11-12	6-sinf	5й класс	G6	Год 7	11-12
2010	12-13	7-sinf	6й класс	G7	Год 8	12-13
2009	13	8-sinf	7й класс	G8	Год 9	13-14
2008	14	9-sinf	8й класс	G9	Год 10	14-15
2007	15	10-sinf	9й класс	G10	Год 11	15-16
2006	16	11-sinf	10й класс	G11	Год 12	16-17
2005	17	12-sinf	11й класс	G12	Год 13	17-18

O'quvchilarni qabul qilish bo'yicha yakuniy qaror suhbat natijalariga, 1-sinfdan boshlab ingliz tili va matematika fanlaridan yozma testlar natijalariga asoslanadi. Yuqori sinf o'quvchilar uchun akademik hisobot / o'zlashtirish va baholar tabeli asos bo'ladi. O'quvchining yosh guruhini aniqlash oldingi tugallangan sinf / yosh guruhibiga asoslanadi.

Maktabga qabul qilinish uchun ota-onalar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari kerak:

- Anketa (maktab tomonidan taqdim etiladi)
- Tibbiy daftarcha va ma'lumotnoma (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi talablariga muvofiq)
- O'quvchi hujjatlari (oldingi maktabdan)
- Boshqa maktabdan ko'chirilganligi to'g'risidagi guvohnoma (chet ellik o'quvchilar uchun)
- Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma nusxasi
- Ota-onalarning fuqarolik holati to'g'risidagi ma'lumotlar.
- Ota-onalarning pasportlari nusxalari
- Shaxslar ro'yxati - vasiylar (bolani maktabdan olib ketish huquqiga ega bo'lgan shaxslar)
- Maktab psixologiy bilan ishlashga ruxsat, agar bu pedagogik jamoa qarori bilan talab etilsa.

Avval boshqa maktabda o'qishdan chetlatilgan o'quvchilarni qabul qilishni rad etish huquqini o'z ihtiiyorida qoldiradi.

2.3 Ingliz tili – xorijiy til sifatida o`qitilgan o`quvchilarini qabul qilish (EAL)

Asosiy muloqot tili ingliz tili bo'lмаган va ingliz tili malakalarining rivojlanishini talab qiladigan o`quvchilarini qabul qilish maqsadida maktab ingliz tili darajasini (EAL) rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun xodimlarni yollaydi.

O`z ona tilisi- ingliz tili bo'lмаган o`quvchilar, shuningdek, EAL mutaxassisining samarali yordami bilan o'quv dasturini o'zlashtira olish sharti bilan maktabga qabul qilinadi. EAL ni qo'llab-quvvatlash muddati maktab tomonidan belgilanadi, uning maqsadi o`quvchilarning imkon qadar erta EAL mutaxassisi yordamisiz o'qish imkoniyatini ta'minlashdir.

2.3a Umumiy o`rta ta`lim maktabining yuqori sinf o`quvchilari (MYP4, 9-sinf) Ingliz tilini bilish darajasi
EALda boshlang`ich darajada bo'lgan ushbu yosh guruhidagi yangi o`quvchilar mактабга qabul qilinmaydi, chunki ular umumiy o`rta maktab dasturini (Diploma Programme) ni muvaffaqiyatli yakunlash uchun ingliz tilini yetarli darajada egallay olmaydilar va keyinchalik 12-sinfda yakuniy imtihonlarni topshira olmaydilar.

Ta`lim olishda qo'llab- quvvatlashga ehtiyoji bor o`quvchilar haqida

Maktabda bilim olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan va o`quvchilar ta`lim olishda qo'llab- quvvatlanadilar. Biroq, o`quvchilarni mактабга qabul qilish mакtab resurslarining sharoitidan kelib chiqqan holda va sinfdagi boshqa o`quvchilarning ehtiyojlarini ta`minlashga halaqt bermasligini e'tiborga olgan holda qabul qiladi. Bu qaror faqat mакtab tomonidan qabul qilinadi.

Mакtab qo'shimcha ravishda quyidagi hollarda jismoniy nuqsoni bor yoki ta`lim olishda qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan o`quvchilarni qabul qilishni ko'rib chiqishi mumkin:

- Agar o`quvchining akasi/singlisi ushbu mакtabda o`qiyotgan bo`lsa;
- Agar oila farzandi uchun zarur bo`lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha yordam ko'rsatish xarajatlarini to'lashga imkoniyati bo`lsa;
- mакtab ushbu o`quvchini boshqa o`quvchilarning bilim olishiga putur yetkazmasdan samarali bilim olishi uchun yetarli resurslar mavjudligiga ishonch hosil qilganda.
- Mакtabning fikriga ko`ra, qo'shimcha qo'llab -quvvatlangan o`quvchi kelgusida qolgan sinf o`quvchilari kabi muvvaqiyatli o`quvchilar safini egallay oladi.

Agar mакtab ta`lim olishda yordamga ko'proq muhtoj bo'lgan bola uchun o`rin ajratish taklifini bersa, qabul qilish shartlari ota-onalar va Akademik direktor / Dastur koordinatori tomonidan imzolangan rasmiy hujjatda aniq ko'rsatiladi.

Ota-onalar farzandining ta`lim olishi uchun zarur bo`lishi mumkin bo'lgan maxsus yordam haqida oldindan ma'lumot berishga mas'uldirlar. Bunday ma'lumotni o`z vaqtida taqdim etmaslik bolaning mакtabga qabul qilinishi yoki mакtabdan chetlashtirilishiga olib kelishi mumkin.

2.6 Sinfdan – sinfga ko`chirish haqida

Keyingi sinfga qabul qilish varaqasi yanvar oyida qabul bo'limi tomonidan yuboriladi. Shabl ota-onalar to'ldirilishi va fevral oyining oxirigacha mакtabga qaytarilishi kerak. Ushbu qabul qilish varaqasi rejalashtirish maqsadlarida qo'llaniladi, lekin ayni damda mакtabga ta`lim olayotgan o`quvchilarning ushbu mакtabdagagi o`rnini kafolatlamaydi.

2.8. O`quvchilarini boshqa mакtablardan o`tkazish haqida

O`quv yilining boshida bo'lgani kabi, o`quv yili davomida mакtabga qabul qilingan barcha o`quvchilar avvalgi o`quv muassasasidan akademik hisobot / o`zlashtirish va baholar tabelini topshirishlari va mакtabga qabul qilinishlari uchun ariza shaklini to'ldirishlari kerak. Biroq, bu talablarni bajarish mакtabga qabul qilinishni kafolatlamaydi. Bundan tashqari, barcha o`quvchilar IB Akademik Direktori / Koordinatori bilan suhbatdan o'tishlari va o`z sinfini aniqlash uchun ingliz va matematika fanlaridan yozma test topshirishlari kerak bo`ladi. Boshqa mакtablardan o`quvchilarini qabul qilish: suhbatlar, test sinovlari natijalari va oldingi mакtablarning tavsiyalari, shuningdek, bo'sh o`quvchi o'rnlari mavjudligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ota- onalarga matabga qabul qilish to'g'risida xabar yuborilgandan so'ng, barcha zarur hujjatlar mavjud bo'lgan holda, o'quvchilar tarkibiga yangi o'quvchini qabul qilish va uni moslashtirish uchun yetarli vaqtini ta'minlash maqsadida boshqa maktab o'quvchilari 2 akademik kunidan so'ng o'qishni boshlashlari mumkin.

2.9. Maktabdan ketish haqida

Agar o'quvchi Invento maktabidan ketishi kerak bo'lgan holatda , ota-onalar qabul bo'limiga yozma ariza topshirishlari kerak. O'quvchilar / ota-onalar, maktabning turli bo'limlaridan majburiyatlari yo'qligi haqida imzo toplashi, Invento mulkini, shu jumladan kitoblarni qaytarish majburiyatlari yo'qligini, shuningdek, maktab oldidagi moliyaviy majburiyatlarning yo'qligi va hokazolarni tasdiqlovchi shaklni to'ldirishlari kerak.

Mas'ul shaxslar: Karolin Fogiel (akademik direktor), Ranjana Manuel (PYP koordinatori), Andrea Usher (PYP koordinatori), Rebekka Painter (MYP koordinatori), Munisa Komilova (bosh direktor o'rinnbosari), Malika Axundi (AC qabul bo'limi boshlig'i), barcha PYP va MYP o'qituvchilari.

Qayta ko'rib chiqish sanasi:
2023-yil, avgust

